

“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo'i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston Respublikasining
Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi
Bursa viloyati Usmong'ozi tumani hokimligi
1326 Bursa Fatih muzeyi
Bursa Uludog' universiteti

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari

Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi
Türkiye'deki Özbekistan Büyükelçiliği
Bursa Osmangazi Belediyesi
1326 Bursa Fetih Müzesi
Bursa Uludağ Üniversitesi

«ALİ ŞİR NEVAİ VE XXI. ASIR»

9. Uluslararası Konferans Bildirileri

8 Şubat 2024

Taşkent - Bursa - 2024

muxlislari, tадqiqotchilar uchun ham muhim manbadir. Ushbu debochaning muhimligining yana biri isboti u Navoiyning o'zi tomonidan bevosita yozilganidir. Sad timsolinig debochada uchrashi Navoiy lirkasida ushbu timsol muhim ahamiyat kasb etadi degani emas, albatta. Buning sabablarini yuqorida ko'rib chiqdik. Shunchaki debochada sad timsoli Navoiy lirkasida, balki ijodida muhim o'rinda turuvchi Iskandar obraziga yondosh, uning bir belgisi, xususiyati sifatida foydalanilgan. Sad timsoliga tasavvufiy urg'u ham ko'p yuklatilinmagan. Birgina g'azalida kibr haqida gapira turib, manmanlik yo'lingga mustahkam radmdir, uni yakson qilmasang, hech bir ish qila olmaysan deydi. Ana shu baytdagi sad timsolida bir qadar tasavvufiy mohiyat bor deyish mumkin. Yakuniy xulosa shuki, Navoiy lirkasida sad timsoli kam qo'llanilgan hamda ortiqcha tasavvufiy, majoziy ma'no kasb etmaydigan timsoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий, Алишер. 1987. *Бадойиъ ул-бидоя*. МАТ. 20 томлик. Т.1. – Тошкент: Фан. – Б.689.
2. Навоий, Алишер. 1987. *Наводир ун-ниҳоя*. МАТ. 20 томлик. Т.2. – Тошкент: Фан. – Б.622.
3. Навоий, Алишер. 1990. *Тарихи анбие ва ҳукамо*. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан. – Б.329.
4. Комилов, Нажмиддин. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Мовароуннахр – Ўзбекистон. – Б.447.
5. Коннов ва б. 1984. *Навоий асарлари изоҳли лугати*. 4 томлик. Т.1. – Тошкент: Фан. – Б.656.
6. Мухаммад Юсуф, Мухаммад Содик. 2008. *Тафсири ҳилол*. 6 томлик. Т.3. – Тошкент: Шарқ. – Б.673.
7. Исмоилов, Илёс. 2022. *Алишер Навоийнинг "Садди Искандарий" достони генезиси ва поэтикаси*. DsC. – Тошкент. – Б.292.
8. Wallis Budge, Ernest A.. 1889. *The History of Alexander the Great, being the Syriac Version of the Pseudo-Callisthenes. Edited from five manuscripts, with an English translation and 272 notes*. – Cambridge: At the University press. – P.680.

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSSI TADQIQIDA FAXRIY HIROTIY “RADOYIF UL-ASH’OR” ASARINING O’RNI

Nazora Bekova

*Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori,
bekova.nazora@mail.ru*

Ba'zi manbalarda hazrat forsiy she'rlarida ham Navoiy taxallusini qo'llagani haqida ma'lumotlar uchraydi. Shoiring zamondoshi Faxriy Hirotiy (1443-1556) "Radoyif ul-ash'or"ining mukammal nusxasining topilishi [Shodihev, 1982:5] ham uning forsiy merosini o'rganishda muhim hodisalardan biri bo'ldi. XV asr oxiri va XVI asr o'rtalarida yashab ijod etgan Faxriy Hirotiy o'z zamonining etuk shoirlaridan biri, atoqli tarjimon va iste'dodli adabiyotshunos olim sifatida butun Xuroson va Movaraunnahrda keng shuhrat qozongan edi.

Alisher Navoiy merosini atroflicha o'rgangan, uning asarlaridan katta badiiy zavq olgan bu iste'dodli adib 1511-1522-yillar orasida "Majolis un-nafois"ni fors tiliga tarjima qilib, uni "Latoifnoma" deb atadi. O'z tarjimasiga yangi 9-majlisni kiritdi va unga Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlarni hamda "Majolis un-nafois"ga kirmay qolgan yana 189 shoir haqidagi qimmatli faktlarni ham ilova qilib, bu asarni yanada boyitgan edi.

Faxriy Hirotiy Alisher Navoiy ijodidan har tomonlama bahra olib ,she'riyatda ham, tazkirachilikda ham uning an'analarini davom ettirdi. Alisher Navoiy asarlarini puxta va atroficha o'rgangan, tarjima qilgan, o'z "Radoyif ul-ash'or"iga uning forsiy g'azallarini ham tanlab kiritgan bu ajoyib olimni o'z zamonasining etuk navoiyshunoslaridan biri edi, desak yanglismaymiz.

Faxriy Hirotiyning mazkur asarida Alisher Navoiyning forsiy g'azallariga ham keng o'rinn berilgan bo'lib, bu she'rlarga u "Mavlono Mir Alisher bo taxallusi Foni go'yad" (Mavlono Mir Alisher "Foni" taxallusi bilan aytur), "Amir Alisher go'yad" (Amir Alisher aytur), "Amir Alisher farmoyad" (Amir Alisher buyurur), "Mir Alisher bo taxallusi Foni farmoyad" (Mir Alisher "Foni" taxallusi bilan buyurur) tarzida sarlavhalar qo'yganki, Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ash'or" idagi "Foni" taxallusi bilan yozilgan bu g'azallar qaysi Foniyniki ekan? Kashmirlilik Muhsin Foniynikimi? Hoja Dehdor Foniynikimi? Yoki Alisher Navoiy - Foniynikimi, - deb ikkilanishga hojat qolmagan. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, Faxriy Hirotiy o'z kitobida har bir g'azalni keltirishdan oldin bu kimning g'azali, o'sha muallifning qaysi taxallus bilan yozgan g'azali ekanligini aniq ko'rsatib o'tgan.

Ergashali Shodiyev Faxriy Hirotiy tomonidan tartib berilgan bu kitobdan Alisher Navoiy - Foniya tegishli bo'lgan she'rlarining katta bir qismini ajratib oladi va uni "Devoni Foniyning" professor Hamid Sulaymon tomonidan nashrga tayyorlangan nusxa bilan solishtirib chiqadi. Olim Faxriy Hirotiy "Radoif ul-ash'or" ida Foni taxallusi bilan keltirilgan o'ndan ortiq g'azal "Devoni Foni" ning Alisher Navoiy asarlari kulliyoti tarkibida nasr etilgan nusxasida ham mavjud ekanligini aniqlagan. Nazardan o'tkazganimizda, mazkur g'azallar shoir asarlarining yigirma va o'n tomligidan ham o'rinn olganligiga amin bo'ldik. Masalan, Navoiy kulliyoti 15 tomligining 5-tom 1-kitobining 70, 128, 160, 148, 5-tom 2-kitobining 126, 128, 266-sahifalarida keltirilgan g'azallar Faxriy Hirotiyning "Radoif ul-ash'or" ida ham uchraydi. Olimning ta'kidlashicha, ammo bu g'azallarining ayrim bayt va satrlar orasida joylashtirilgan iboralarida goho farq va tafovutlar ko'zga tashlanadi. Bu tafovutlar Alisher Navoiy forsiy she'rlarini yanada chuqurroq o'rganish , "Devoni Foni" ning ilmiy tanqidiy matnini tuzishda manbaashunos olimlarimizga qo'l kelishi mumkin.

E.Shodiyev haqli savol qo'yadi: "Faxriy Hirotiy "Radoyif ul -ash'or" ida Alisher Navoiy g'azali sifatida berilgan bu she'rlar ustod Sadreddin Ayniy tuzgan kichik majmuada ham mavjud. Shunday ekan, bu g'azallarni Alisher Navoiy qalamiga mansub emas, deb qarasak to'g'ri bo'larmikin? To'g'ri, bu forsiy g'azallar "Devoni Foni" ning Parij nusxalarida uchramasligi mumkin, ammo she'rlar "Devoni Foni" ning boshqa mukammal nusxalarida ham uchrab qolishi mumkin-ku, axir! Biz shoirning "Devoni Foni" ga kirmay qolgan forsiy she'rlari bo'lishi mumkin emas, deb ayta olamizmi? To'g'ri, Hamid Sulaymon "Xazoyin ul-maoniy" ning mukammal nusxasini nashrga tayyorlaganda Navoiy tomonidan "Xazoyin ul-maoniy" ga kiritilmay qolgan yigirmadan ortiq g'azal, bir qator ruboylar, fardlar va qit'alarni aniqlab, nashr ettingan edi-ku!" [Alisher Navoiy, 1960: 773-794].

A.Hayitmetov Alisher Navoiy lirkasining ba'zi masalalari yuzasidan fikr yuritganda Alisher Navoiyning rasmiy devonlariga kirmagan Xondamirning "Makorim ul-axloq", Vosifiyning "Badoye ul-vaqoe" asarlarida, shuningdek, "Tom ut-tavorix" asarlarida keltirilgan bir qator she'rlar yuzasidan so'z yuritar ekan: "Umuman, Navoiy davridagi va undan keyinroq yozilgan tarixiy, adabiy, ilmiy manbalarni sinchiklab o'rganish Navoiyning forsiy tilidagi ijodi, umuman, lirk ijodi haqida yangi ma'lumotlar berishi shubhasiz", -degan edi [Hayitmetov, 1981: 28].

Haqiqatan ham Navoiyning forsiy va turkiy g'azallari turli manbalarda ko'plab ko'zga tashlanmoqda. Tojik olimi A.Muxtorov XVI asr shoiri Muhammad Solihning yangi topilgan "Risola dar bayoni mazoroti Balx" asari haqida so'z yuritar ekan, Alisher Navoiyning 1480-1481 (885hijriyda) yillarda Husayn Boyqaro topshirig'i bilan Balxga kelishi haqida ma'lumot beradi va

uning Balx shahri haqida yaratgan forsiy she'ri yuqoridagi asarda keltirilganini ma'lum qiladi [Muxtorov, 1975:21]. Yana boshqa bir qator manbalarda ham Navoiyning "Devoni Fony" kitobiga kirmay qolgan forsiy g'azallari uchrab turishi tabiiy bir holdir.

Faxriy Hiroiy "Radoyif ul-ash'or" idagi :

Chashmi man bar safhan zar dambadam simob rext,
Bar umedi dardi vaslat gavhari serob rext.
Shomi g'amat giriftu nayomad sahar maro,
Ro'zi shabam g'izo shuda xuni chigar maro.
Hijobi rah zi sozad zi donishu amal ast,
Kushodi kor za lutfu inoyati amal ast.

matlalari bilan boshlanuvchi yana bir qator g'azallar keltirilganki, "Amir Alisher go'yad", "Mavlono Mir Alisher bo taxallusi Fony go'yad", "Mir Alisher bo taxallusi Fony Farmoyad" sarlavhalari bilan keladi. Bizning nazarimizda ham Faxriy Hiroiy keltirgan bu g'azallar Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Ba'zi olimlarimiz Alisher Navoiy forsiy she'rlarini faqat "Fony" taxallusi bilan yaratgan. "Navoiy" taxallusi bilan esa forsiy she'rlar yozmagan, degan fikrni bayon etadilar. Faxriy Hiroiy "Radoyif ul-ashyor" idagi Alisher Navoiyning ko'pchilik g'azallari "Fony" taxallusi bilan, ba'zan g'azallar esa "Navoiy" taxallusi bilan ham keladi. Masalan, o'sha asardan o'rın olgan quyidagi g'azalga e'tibor beramiz:

Chashmi sho'xi yoru dar dunboli abro' xoli o',
Xast oxue, ki chug'ze boshad az dunboli o'.
Na'l lu dog'am hast go'yo az sumi aspash nishon,
Baski dar maydon chu xoki rax shudam pomoli o'.
Chashmam az savdoi xattash xushk gashta chun qalam,
Tobho dar rishtai chonam ba soni noli o'.
Mardumi chashmi Navoiy qatra afshonad zi ashk,
Zor chu yak tifle, ki obafshon ast amvoli o'.

Bu g'azal biroz boshqacharoq shaklda Sadriddin Ayniyning "Alisher Navoiy" monografiyasida keltirilgan. Ustod Ayniy o'z kitobining ilova qismida "Navoiy" taxallusi bilan yozilgan g'azal deya alohida ajratib keltirilgan g'azal quyidagicha:

Chashmi sho'xi yor az dunboli abro' xoli o',
Hast oxue ki charg'i boshad az dunbole o'.
Na'l dog'am hast go'yo az sumi aspash nishon,
Baski dar maydon chu xoki rax shudam pomoli o'.
Chun ruxash binam, shavad az zavq holi man digar,
Zavqi in mane kase donad, ki gardad holi o'.
Gar ravad dil meravat az bahri tash'eash zi pay,
Gar rasad jon merasad bar lab ba istiqboli o'.
Mardumi chashmam, Navoiy qatra afshonad zi ashk,
Rost chun tifle, ki obafshonda..... o' [Ayni, 1963:439].

Sadriddin Ayniyning xabar berishicha, bu g'azalni Alisher Navoiy o'z ustozи Abdurahmon Jomiying:

Murg'i jon kardi, havoyi donahon xoli o',
Gar nabasti rishtan log'artani man boli o'.

matlali g'azaliga javoban yaratgan bo'lib, Navoiyning bu forsiy g'azaliga Riyoziy Samarcandiy, Hiloliy, Sayfiy Buxoriy, Xoja Musayib Devon kabilar tatabbu' bitganlar [Ayni, 1963: 439]. Yuqorida keltirilgan bu dalillardan Alisher Navoiy turkiy tildagi asarlariga ham "Fony" taxallusini

qo'llagani singari o'zining forsiy g'azallaridan ayrimlarini "Navoiy" taxallusi bilan yozgani haqidagi fikrlarni Faxriy Hirotiyning bu asari to'la tasdiqlaydi.

Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ashyor"ida shoirning "Navoiy" taxallusi bilan yozilgan forsiy g'azallari yana uchraydi. Quyida keltirilgan g'azalga ham shoir "Navoiy" deb imzo chekkan:

Novake, sho'xe gahi mahvi chone monda,
Dar tani zoram chi mag'zi ustuxone monda.
Naqshi la'li tu suman, yori miskini tu man,
Az mahi parvin, ki o' bar osmone monda.
Raft jonu dinu dil az mann, chu rafti, voy man.
Botini tanho g'arib az korvone monda.
On, ki bigzasht, az chavoni, dar pai piri fitod,
Az yaqin aftodavu, dur az kamone monda.
E, Navoi, bo sagi ko'yash nagahti oshno,
Do'st medoram turo to nim jone monda.

Umuman, Fahriy Hirotiyning bu asari har tomonlama o'rganish va tadqiq etishga arziydi. Bu asardan faqat Alisher Navoiyning she'rlarigina emas, balki Navoiy zamondoshlarining ko'plab noyob forsiy g'azallarini topish va bu she'rlardan ajoyib gulasta tuzish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Амир Алишер Навоий (Фоний). – Кобул .1346. Сах.10
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 4- том. Фавойид ул-кибар. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. –Т.: Фан, 1960. –Б.773-794.
3. Айни. Куллиёт. Жилди II. Китоби якум. –Д. 1963. Сах.439.
4. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. –Т.: Фан, 1990. –Б.343.
5. Мухторов А. Аз пай тарихи кухан. –Д. 1975.Сах.21.
6. Садриддин Айни. Намунаи адабиёти тоҷик. –М.1923.Сах.180.
7. Тухфай Соми. Таълифи Сом Мирзо Сафави. / Ба ташеҳи Воҳиди Дастири. –Техрон , 1314 хижрий йил ҳисоби. Сах.181.
8. Шодиев Э. Алишер Навоийнинг форс-тоҷик тилидаги асарлари. –Т.:Фан, 1990, 23-бет.
9. Шодиев Э. "Радойиф ул-ашъор"да Навоийнинг форсий ғазаллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. №5.
10. Ҳайитметов А. Навоий лирикасининг бальзи масалалари // Навоий ва ижод сабоқлари. –Т.: Фан, 1981. –Б.28.
11. Ҳофиз Нурмуҳаммад. Таърихи Мазори шариф. –Кобул, 1325.Сах.31.

MUNDARIJA

Shuhrat SIROJIDDINOV. So'zboshi	7
Şuhrat SIRACIDDINOV. Ön söz	9
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MERO SINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI VA ADABIY TA'SIR MASALALARI	
I OTURUM. ALI ŞİR NEVAİ'NIN EDEBI MIRASININ DÜNYA MEDENIYETINDEKİ YERİ VE EDEBİ ETKILEŞİM	
PANEL I. THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION AND THE ISSUES OF LITERARY IMPORTANCE	
Prof. Dr. Vahit TÜRK. Ali Şir Nevâyi Mirasının Türk Kültüründeki Yeri	11
Prof. Dr. Benedek PÉRI. Mîr 'Alişir Navâyi and a Popular Ottoman Imitation Network From the 16th Century	18
Muslihiddin MUHIDDINOV. Alisher Navoiy va salafları ijodida so'z faziliati	28
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN, Pr. Dr. Dilnavoz YUSUPOVA. Global/Küresel Şahsiyet Olarak Ali Şir Nevâyi	36
Razmi GHOLAMREZA. Nevâi Şiirde Timurlu Edebi Üslubun Kurucusu (Timurlu Üslubu Teorisi)	46
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. O'z zamonasidan ilgarilagan buyuk ijodkor	66
Yaşar QASIMBƏYLİ. "Xosrov və Şirin" və "Fərhad və Şirin" müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq müstəvisində	71
Nafas SHODMONOV. Navoiy g'azallariga Shayboniy javobları	76
Alimuhtar MUHTAROV. Nizami Gəncəvidən Əlişir Nəvaiyə Türk Ruhunun XXI Əsrə Təzahürləri	82
Bahodir KARIM. Alisher Navoiy va jadidlər (mavzuga doir ayrim mulhazalar)	88
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Adabiy ta'sir: Navoiy va Nishotiy	94
Burobiya RAJABOVA. Attor va Navoiy təlqinində Robiya Adaviya siyəsi	99
Ahmet AKALİN. Ali Şir Nevai'nin Özbekistan'ın Yumuşak Gücü İçerisindeki Konumu	105
Ergash OCHILOV. Alisher Navoiy va Nosir Buxoriy	109
Pəri HÜMBƏTOVA. Məsihi Təbrizinin Əlişir Nəvaiyə yazdığı təxmisləri	114
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek adabiyotında Navoiy obrazı tadriji	119
Şəhla MƏCIDOVA. Əlişir Nəvai yaradıcılığında Nizami Gəncəvi əzəməti	124
Saidbahrom AZIZOV. Important Astronomical Concepts in the works of Alisher Navoi	128
Shermuhammad AMONOV. Adabiy izdoshlik: Navoiy va Tabibiy	136
Malhat PULATOVA. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy "Arba'in"larda hadislarning adabiy təlqini masalalari	141
Sherxon QORAYEV. Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechaları va Alisher Navoiy	147
Erfan Eshghi nour YASIN OĞLU. Nevai ve Nesimi arasındaki benzerliklere ve	151

TEZISLAR

Axmedova Shoira. Navoiy va Jomiy maktublarida badiiy ijodga munosabat	586
Abdurahmonova Barno, M. Solijonova. Furqat ijodida navoiyona ohanglar	589
Abdullayeva Marg'uba. Maqolat va hikoyat uyg'unligi	592
Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta'siri	596
Abduraimova Xafiza. Alisher Navoiy g'azaliyotida sad timsoli	599
Nazora Bekova. Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqida Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ash'or" asarining o'rni	603
Dehqonov Akramjon. "Hayratul abror"dagi "tot" so'zi haqida	607
Jamolova Zilola. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida adabiy obzor janriga xos unsurlarning tahlili	610
Jo'raboyev Nosir. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari manbalari	614
Jo'rayeva Sobira. Navoiy va Shukuriy	617
Dilfuza Zaripova. Huvaydo ijodida Navoiy an'analar	620
Iskandarov Fayzulla. "Farhod va Shirin" dostonidagi na't boblarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	624
Ibotova M. Alisher Navoiy lirkasida ruhning badiiy ifodasi	627
Meliyev Suvon. Alisher Navoiy va Chingiz Aytmatov: qiyos hadlari	630
Babanazar Murtazayev. "Sab'ai sayyor" va "Hasht bihisht"da Diloram obrazi	632
Mamatqulov Muzaffar, Fayzullayeva Obidaxon. Tuyuq janri takomili va Alisher Navoiy tuyuqlari	639
Nazarov Nasriddin. Alisher Navoi phenomenon in the development of cultural processes	643
Rahmatov Mardon. Alisher Navoiy g'azallarida nutq subyekti	647
Rahmonov Vahob, Nishonov Shavkat. Navoiyona badiiyat mo'jizalari	652
Rajabova Ma'rifikat. Alisher Navoiy she'riyatida ruh sayrining badiiy talqini	654
Rahmonova Zulayho. Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol..	657
Saidova Rayhon. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ijod va ijod ahli haqidagi qarashlari tahlili	660
Sanakulov Illug'bek. Alisher Navoiy she'riyatda Layli Va Majnun timsollari talqini an'anasi	664
To'xtamuratov Furqat. Qo'lyozma bayozda Navoiy g'azallari matniy tadqiqi	668
Temirov Farrux. Sadreddin Ayniy - Navoiy ijodiy merosi tadqiqotchisi	671
Tojlyev Dostonjon. Historical significance of "Alisher Navoi international award"	674
Tojixon Sabitova. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlarida shohlar vasfi	678
Tuychiyeva Maxfuza. Navoiy ijodini o'rganish tajribasi bir ruboy misolida	681
Kalliyeva Gulnoz. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyosiy metodologiya asoslari	685
Xo'jayev Tohir. Navoiy g'azallaridagi ayrim obrazlar xususida	688
Xasanova Barno. Navoiyning peyzaj lirkasi	691
Ulug'murodova Kamola. "Navodir ush-shabob"da Layli obrazining badiiy talqini	694
Haydarova Gulhayo. Alisher Navoiy an'analarini va XX asr o'zbek g'azaliyoti	698